

№ 6 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 6 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик
Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Аминов Хамидулла Абдирахимович -</i> БОБУР ДАВРИДАГИ САМАРҚАНД ШАЙХУЛИСЛОМИ	9-14
<i>Неъматов Рустам Абдуваид ўғли</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР	15-23
<i>Raxmanov Zafar Adilovich, Aloxunov Alisher Ahmadjonovich</i> FARG'ONA VODIYSI ARXEOLOGIK YODGORLIKHLARI JOYLASHUV QONUNIYATLARI: T AHLIL VA MULOHAZALAR	23-32
<i>Мансуров Музаффаржон</i> СОВЕТ ИТТИФОҚИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА МАДАНИЙ ТУРИЗМНИНГ ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	32-42
<i>Mirsoatova Sayyora Turg'unovna, Muhsiddinov Ahrorbek Mamurovich</i> FARG'ONA MEZOLIT VA NEOLIT DAVRI JAMOALARINI O'ZARO MADANIY ALOQALARI XUSUSIDA	43-48

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Kurpayanidi Konstantin Ivanovich</i> COVID-19 PANDEMIYASI OQIBATLARINI BARTARAF ETISH SHAROITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYaLARNI JORIY ETISH MASALALARI	49-55
<i>Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li</i> КОМПАНИYALAR SAMARALI BOSHQARUV TIZIMIDA ICHKI NAZORATNING O'RNI	56-65
<i>Абдуллаева Зульфия Иззатовна</i> ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОВЕДЕНИЕ КЛИЕНТОВ ГОСТИНИЦ	66-74
<i>Алимова Муниса Юлчиеевна</i> ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ	75-80
<i>Абдиеva Наргиза Шухратовна</i> ИЧКИ АУДИТДА ФИРИБГАРЛИК РИСКИНИ АНИҚЛАШ ВА БАҲОЛАШ	81-91
<i>Tўхтасинова Дилдора Раҳмонбердиевна, Ахунова Маърифат Ҳакимовна</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ҲАЁТ	92-97
<i>Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li</i> BOZOR ISLOHOTLARI SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	98-103
<i>Савинова Галина Анатольевна</i> ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ МСФО И НСБУ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОСТАВЛЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	104-108
<i>Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li</i> QURILISH SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI	109-114

Урдушев Хамракул, Мавлянов Мажид, Эшанкулов Сирожиддин, Розиева Гулхаё
**АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА УЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА РАҚАМЛИ
 ТЕХНОЛОГИЯЛарНИНГ ЎРНИ** 115-125

Худаярова Хуршида Абдуназаровна
**ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН БАНК ХИЗМАТЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МУАММОЛАРИ
 ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ** 126-132

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Бойдадаев Абдурроҳмон Толибжон ўғли
РЕНЕССАНС ДАВРИДА ПАНТЕИСТИК ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ..... 133-141

Алиқулов Ҳусниддин Ақбарович
ҲОЗИРГИ ДАВРДА ГЛОБАЛ ЭКОЛОГИК ХАВФ-ХАТАР ВА НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАР. 142-151

Сайдова Камола Усканбаевна
**РЕНЕССАНС ДАВРИ САНЪАТИ – ЖАҲОН МАДАНИЯТИ АЖРАЛМАС ҚИСМИ
 СИФАТИДА** 152-156

Shirinov Anvar Qanoatovich
**MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTI SOHASIDAGI STRATEGIYALARNING IJTIMOIY-
 FALSAFIY TAHLILI** 157-162

Хасанов Бобуржон Ҳакимович
**ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ОММАВИЙ НОРОЗИЛИК ҲАРАКАТЛАРИНИ ОЛДИНИ
 ОЛИШНИНГ ҒОЯВИЙ-МАФҚУРАВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ** 163-167

Xodjayeva Fotima Nabixonovna
AHMAD G'AZZOLIYNING "SAVONIH" ASARI HAQIDA QISQACHA TASNIF 168-172

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Rustamova Shaxnoza Abduraximovna
MATN, TARJIMA TURLARI VA TARJIMADA TARJIMON MAHORATINING O'RNI 173-180

Abdulloyeva Kamola Mirxon qizi
**MUALLIF DISKURSIV SHAXSI TUSHUNCHASI, STRUKTURASI VA RIVOJLANISH
 TENDENSIYALARI** 181-191

Turg'unova Fazilat Rustam qizi
PRAGMALINGVISTIKA NUQTAI NAZARIDAN SARLAVHA FUNKTSIYALARI 192-197

Saidov O'lmas Raxmatovich
O'ZBEK TILI ISH YURITISH TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAVSIFI 198-206

Xuramova Dildora Rahkmonkulovna, Axmedova Firuza Asrorovna
O'ZBEKİSTONDA TARJIMONLARNING TARJIMA USLUBINI BERILISHI XUSUSIDA 207-213

Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li
**MADANIYATLARARO SIYOSIY MAKONDA TAJOVUZKOR SALOHIYATGA EGA NUTQ
 TA'SIRINING USULLARI** 214-219

<i>Murodova Nilufar Karomatovna</i>	
BLOGERLIK FAOLIYATIDA MAHORAT MASALALARI	220-224
<i>Ochilova Hilola Husan qizi</i>	
XITOY TILIDA NOMINALIZATSİYA HODİSASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR	225-229
<i>Kuvonov Zarifjon Maxsiddin o'g'li</i>	
NEMIS TILIGA CHET TILIDAN O'ZLASHAGAN SO'ZLARNING STRUKTURAL-SEMANTIK TADQIQI	230-238
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i>	
"MULLO NASRIDDIN" – TURKIY MATBUOT TARIXIDA MUHIM HODISA	239-245

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Абдуллаева Маликабону Эркин қизи</i>	
ХАЛҚ ТАЪЛИМИДА МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВ ВА МЕҲНАТ МУНОСАБАТЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ КОРРУПЦИЯВИЙ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ	246-256

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Jumayev Rustam G'aniyevich</i>	
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	257-263

<i>Бозорова Муслима</i>	
ЭТНОПЕДАГОГИКА ТАЛАБА-ЁШЛАРДА ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ЎЗИГА ХОСЛИКНИ ШАКЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА	264-270

<i>Samadova Sarvinoz Samad qizi</i>	
YOSHLARNI BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHGA DOIR KOMPETENSIYALAR....	271-275

<i>Жўраев Воҳид Тоҷимаматовиҷ</i>	
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ТАЪЛИМ МУАССАСАСИНИ БОШҚАРИШ	276-288

<i>Бозорова Назокат</i>	
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИГА ОИД МАҲАЛЛИЙ МУЗЕЙ МАТЕРИАЛЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ-ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА	289-295

<i>Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li</i>	
MAKTAB O'QUVCHILARINI HUQUQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH TEHNOLOGIYALARI BORASIDA EKSPERIMENT ISHLARINI TASHKIL ETISH VA NATIJALAR TAHLILI	296-301

<i>Sharipova Sitora Xaydarovna</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIMDAN FOYDALANISH	302-307

<i>Isag'aliyeva Sadafxon Muxammadaminovna</i>	
BIOLOGIYA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARNI QO'LLASH	308-312

<i>Umarov Abdusamat Abdumalikovich, Xojimurodova Mahliyoxon Kenjavoy qizi</i> OILA VA NIKOH SHAROITIDA AYOLLAR SPORTINING MUAMMOLARI	313-317
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna</i> LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH TEKNOLOGIYASINING MOHIYATI VA MAZMUNI...318-325	
<i>Ro'ziev Rustam Ro'zimurodovich</i> YONG'IN XAVFSIZLIGI MADANIYATI-ODDIYLIK DAN KOMILLIK SARI	326-330
<i>Акрамов Баходир</i> МАЛАКАЛИ ДАРВОЗАБОНЛАРНИ ЎЙИН ДАВОМИДА БАЖАРИЛАДИГАН ТЕХНИК-ТАКТИК ҲАРАКАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ	331-336
<i>Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'g'li</i> BO'LAJAK TARIXCHILARDA TARIX FALSAFASI VA UNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARIGA DOIR BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	337-342
<i>Umarov Bekzod Azizovich</i> RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOGLARNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI	343-349
<i>Бекимбетова Дильтуза Оралбаевна</i> РАЗВИТИЕ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	350-356

Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li,
Farg'ona politexnika instituti,
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi assistenti,
e-mail: izzatbek.tojimatov@ferpi.uz

BOZOR ISLOHOTLARI SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi bozor islohotlari sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish masalalari to'xtalib, amaliyotdagi murakkab va munozarali jihatlariga e'tibor qaratildi. Banklar tomonidan kredit berishdagi moliyaviy hisobotlarni tahlili, tuzilishidagi omillar, dolzarb masalalardan biri sifatida izohlandi, zero, korxonaning moliyaviy natijalari uning moliyaviy hisobotlarida o'z aksini topadi, bu o'z navbatida korxona ishonchhliliga bevosita ta'sir qiladi. Maqola so'ngida muallif bozor islohotlari sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish masalalarining yechimlari yuzasidan takliflar shakllantirdi.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, korxonada axborot berish tizimi, moliyaviy hisobotlar, to'lov qobiliyatini baholash, korxonaning moliyaviy natijalari.

Тожиматов Иззатбек Икромали ўғли,
Ферганский политехнический институт,
Кафедра “Бухгалтерский учет и аудит”, ассистент

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНЫХ РЕФОРМ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы формирования финансовой отчетности в условиях сегодняшних рыночных реформ, уделяется внимание сложным и спорным аспектам практики. Анализ финансовой отчетности в кредитовании банками, факторы в ее структуре были истолкованы как один из актуальных вопросов, ведь финансовые результаты предприятия отражаются в его бухгалтерской отчетности, что, в свою очередь, напрямую влияет на надежность деятельности предприятия. В завершение статьи автор сформулировал предложения по решению вопросов формирования финансовой отчетности в условиях рыночных реформ.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, система информирования на предприятии, бухгалтерская отчетность, оценка платежеспособности, финансовые результаты предприятия.

Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li,
Fergana Polytechnic Institute, Department
of Accounting and Audit, Assistant

ISSUES OF FINANCIAL REPORTING FORMATION IN THE CONTEXT OF MARKET REFORMS

Abstract. This article discusses the issues of financial reporting formation in the context of today's market reforms, pays attention to complex and controversial aspects of practice. Analysis of financial statements in lending by banks, factors in its structure were interpreted as one of the topical issues, because the financial results of the enterprise are reflected in its accounting statements, which, in turn, directly affects the reliability of the

enterprise. At the end of the article, the author formulated proposals to address the issues of financial reporting in the context of market reforms..

Keywords: accounting, information system at the enterprise, accounting statements, assessment of solvency, financial results of the enterprise.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6Y2023N12>

Kirish. Iqtisodiy obyektni boshqarish jarayonini ta'minlaydigan ma'lumotlar majmuasiga buxgalteriya hisobi va statistik hisobotlar, operatsion faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar kiradi. Moliyaviy va statistik hisobotlar samarali operativ va strategik boshqaruv uchun qo'llaniladi va boshqaruv jarayonlarini umumiyl axborot bilan ta'minlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"[1]gi Qonuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tgan barcha tashkilotlar, korxonalar va muassasalar o'z faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi moliyaviy hisobotlarni yuritishlari shart.

Hisobot ma'lumotlarini tahlil qilish erishilgan muvaffaqiyatlar va inqiroz sharoitlarining sabablarini aniqlashga imkon beradi, boshqaruv va biznes jarayonlarini takomillashtirish yo'nalishlarini asoslashga yordam beradi. Hisobotni o'rganishning muhim vazifasi rejalarining bajarilishini baholash, korxonaning iqtisodiy faoliyatining haqiqiy holati va rejalashtirilgani o'rtaidagi tafovutning tabiatini va darajasini aniqlashdir. Bu paydo bo'lgan muammolarni birinchi o'ringa qo'yish va og'ishlarni boshqarish va korxona samaradorligini oshirish uchun tuzatuvchi signallarni ishlab chiqish imkonini beradi. Buxgalteriya hisoboti ta'minlash funksiyalarini bajaradi.

Korxonaning mulkiy va moliyaviy holatini baholash, rejalarini shakllantirish va korxonaning iqtisodiy maqsadlariga erishish natijalarini monitoring qilish uchun axborotdan tashqi foydalanuvchilarga. Faoliyatning maqsadlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- Qo'yilgan kapitaldan foyda;
- O'z kapitalini saqlash va ko'paytirishdan foyda.

Bu maqsadlar dunyoning aksariyat davlatlarining qonunchilik darajasida belgilanadi va ularni hisobga olgan holda bozorning iqtisodiy subyektlari to'g'risida zarur ma'lumotlar taqdim etiladi.

Moliyaviy hisobotning asosiy maqsadi korxonani samarali boshqarishning bir qator murakkab va muhim vazifalarini hal qilishga yordam beradigan ushbu ma'lumotlardan barcha manfaatdor foydalanuvchilarga zarur moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategiyasi, taktika va dasturlarini ishlab chiqishda, ulardan olingan ma'lumotlarga, turli sohalarga tegishli korxonalar, muassasalar, uyushmalar va boshqalar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishga asoslandi. O'z o'rnida, xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini asoslovchi ma'lumotlar manbasi esa, ushbu subyektning buxgalteriya hisobi va hisobotlaridagi ma'lumotlar hisoblanadi.

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi o'zi buxgalteriya hisobi nima? Bu savolni yoritishda bizningcha quyidagi olimlarning fikrlari o'rinnlidir, T.Toshmamatovning ta'rifi: "Korxonada axborot berish tizimi ish faoliyatini shunday tashkil qilishi lozimki, korxonani boshqarish uchun zarur bo'lgan, bozordagi narx, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi va mahsulotni

sotishdan olinadigan daromad to'g'risidagi ma'lumotlar boshqaruv apparati xodimlarining "qo'l ostida" doimo mavjud va istalgan paytda axborot olish imkonini yaratilgan bo'lishi lozim. Bunday vazifalar boshqaruv tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan -buxgalteriya hisobi yordamida bajariladi. Shuning uchun bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda buxgalteriya hisobini "Biznes tili" deb bekorga aytishmagan" [2; 53 b].

D.Q.Usmanova "Buxgalteriya hisobi- ichki boshqarish va tashqi iste'molchilarining maqsadlari uchun joriy va yakuniy axborotni olish bilan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning xo'jalik faoliyati ustidan uzlusiz va o'zaro bog'liq bo'lgan kuzatish va nazorat qilish tizimidan iborat" [3; 15 b] degan tarifni bergen.

Mahalliy olimlarimiz F.T. Abduvaxidov, I.N. Qo'ziyev va Sh.X. Dadabayev tomonidan "Buxgalteriya hisobi" nomli darsligida: "buxgalteriya hisobi faoliyat ko'rsatayotgan subyektning mulki, majburiyatlari, xo'jalik operatsiyalarini va ularning harakatini yoppasiga hamda uzlusiz hujjatlashtirish yo'li bilan tartibli yig'ish, nazorat qilish, o'lchash, ro'yxatga olish, pul o'lchovida ishlov berish tizimidir" [4; 14 b] o'z xulosalarini va yakuniy ta'rifini shakllantirishgan.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining, 4-moddasida "Buxgalteriya hisobi barcha xo'jalik operatsiyalarini yaxlit, uzlusiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotini yig'ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir.

Buxgalteriya hisobi xo'jalik operatsiyasini buxgalteriya hisobining kamida ikkita schyotida bir vaqtida va o'zaro bog'liq holda pulda baholab aks ettirish yo'li bilan ikkiyoqlama yozuv usulida yuritiladi" [1] degan ta'rif respublikamiz buxgalteriya tizining qay shaklda tuzilishini ifoda etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda quyidagi metod va usullar qo'llanildi: guruhash, taqqoslama tahlil, statistik tahlil, shuningdek sotsiologik so'rov, mantiqiy tasniflash, muammoga tizimli yondashuv usullari.

Natija va muhokamalar. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda har bir xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati uning faoliyati natijalaridan manfaatdor bo'lgan bozor munosabatlari ishtirokchilari (tashkilotlar va shaxslar) ning keng doirasi e'tiboridir. Mulkdorlar kapitalning rentabelligini oshirish, firma pozitsiyasining barqarorligini ta'minlash maqsadida moliyaviy hisobotlarni tahlil qiladilar. Kreditorlar va investorlar kreditlar va depozitlar bo'yicha risklarni kamaytirish uchun moliyaviy hisobotlarni tahlil qiladilar. Qabul qilingan qarorlarning sifati asosan ularning analitik asoslash sifatiga bog'liq bo'ladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda tahlilchiga uning shakllanishida qanday daromad va xarajatlar ishtirok etganini tushunishga imkon beradigan hisobot davri uchun kompaniya faoliyatining moliyaviy natijasini shakllantirish tartibi ko'rsatilgan. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, qaysi sohada ishlashidan qat'i nazar, har qanday korxona samaradorligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan rentabellik tahlil qilinadi. Bunday tahlil ma'lumotlari asosida moliyaviy natijalarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish mumkin [5].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xo'jalik operatsiyalarini ortiqcha ovoragarchiliklarsiz elektron hukumat imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshirish vaqtini tejaydi. Vaqt esa pul, ya'ni daromad demakdir [8].

Bugungi kunda kuchli iqtisodiy raqobat davrida har bir xo'jalik yurituvchi subyekt yuqori foyda olishni istaydi va tabiiyki pirovard maqsadga erishish uchun har bir imkoniyatidan foydalanishga harakat qiladi. Daromadlilagini oshirish uchun korxonaga albatta qo'shimcha mablag' zarur bo'ladi. Ushbu o'rinda korxonalarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda eng yaxshi vositachi bo'lib tijorat banklari maydonga chiqadi. Tijorat banklaridan olingan kreditlar yordamida iqtisodiy barqarorlikni oshirish yaxshi samara beradi, ammo ma'lum bir sabablarga ko'ra bunday imkoniyatdan hamma tashkilotlar ham foydalana olmaydilar [7].

Tahlillarga ko'ra Farg'ona viloyatida tijorat banklaridan birida tahlil o'tkazildi. Bankka 01.01.2022 yildan 30.11.2022 yilgacha bo'lgan davr mobaynida 905 ta xo'jalik yurituvchi subyektlar kredit olish maqsadida murojaat qilgan. Ushbu korxona va tashkilotlarning atigi 294 tasiga haqiqatda kreditlar ajratilgan. Qolgan 611 ta korxona va tashkilotlar kredit shartlaridan qoniqmaslik, bank va mijoz manfaatlarining bir-biriga mos kelmasligi, korxona moliyaviy hisobotlarining lozim darajada taqdim qilinmaganligi kabi turli sabablar bilan rad etilgan. Bu esa umumiyy murojaat qilgan mijozlarning 67.5 % ini tashkil etadi. Ushbu davrda bankda 2021 yilda murojaat qilgan va kredit olishga ulgurmagan 16 ta korxona bilan birqalikda qo'shib hisoblaganda jami 310 ta korporativ, mikro, kichik va agro kreditlar ajratilgan va 11 oylik o'stirish rejasi 74 % ga bajarilgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'rsatkichlarni ko'radigan bo'lsak, 2021 yil 01.01.2021 yildan 30.11.2021 yilgacha bo'lgan davr mobaynida jami 1009 ta xo'jalik yurituvchi subyektlar kredit olish maqsadida bankka murojaat qilgan. Shundan 308 tasiga kreditlar ajratilgan. 701 ta korxona va tashkilotlar kredit ololmagan. Bu umumiyy murojaat qilgan mijozlarning 69.5 % ini tashkil etadi. Ushbu davrda bankda 2020 yilda murojaat qilgan va kredit olishga ulgurmagan 56 ta korxona bilan birqalikda qo'shib hisoblaganda jami 364 ta korporativ, mikro, kichik va agro kreditlar ajratilgan va 11 oylik o'stirish rejasi 84 % ga bajarilgan.

Bundan ko'rinish turibdiki kredit olish maqsadida murojaat qilgan korxona va tashkilotlarning aksariyat qismi kredit ololmagan. Ushbu xo'jalik yurituvchi subyektlarning kredit ololmagani sabablari chuqur qilindi va quyidagi omillar aniqlandi:

1. Bankning kredit shartlari mijozni qoniqtirmaganligi – 15 %;
2. Bank va mijoz manfaatlarining bir-biriga mos kelmasligi – 15 %;
3. Mijoz kredit tarixining yomonligi – 25 %;
4. Korxona va tashkilotlarning moliyaviy hisobotlarni lozim darajada taqdim etmaganligi – 45 %.

Yuqoridagi omillarga to'xtaladigan bo'lsak, mijoz kredit tarixining yomonligi va korxona va tashkilotlarning moliyaviy hisobotlarni lozim darajada taqdim etmaganligi yuqori ko'rsatkichlarni tashkil qilmoqda. Korxona va tashkilotlar o'z imkoniyatlarini chuqur tahlil qilmasdan to'lov qobiliyatidan yuqori miqdorda bankdan kreditlar olganligi natijasida kredit olish maqsadida moliyaviy hisobotlarni sun'iy ravishda o'zgartirib taqdim etmoqdalar va kreditlarni o'z muddatida to'lay olmay qora ro'yxatga tushib qolmoqdalar. Bularning barchasiga korxona va tashkilotlarning o'z to'lov qobiliyatlarini to'g'ri baholay olmasligi, moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi sabab bo'lmoqda [6].

Yuqoridagi muammoning sababi bizningcha korxonalarda buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etilmaganligi va moliyaviy hisobotlarni shakllantirishdagi mas'uliyatsizlikdir, buning

yechimi esa oddiy bu moliyaviy hisobotni tuzishdagi buxgalteriya hisobining asosiy bosqichlariga rioya qilishdir, ya'ni bular quyidagilar:

1. Dastlabki kuzatish. Ushbu bosqichda korxonaning iqtisodiy faoliyatining allaqachon amalga oshirilgan faktlarini tahlil qilish va alohida iqtisodiy operatsiyalarga bo'linish, ularni amalga oshirish vaqt, xarajatlarni o'lchash va mazmuni aniqlanganda amalga oshiriladi.

2. Operatsiyalarni hujjatlashtirish. Ushbu bosqich tugallangan xo'jalik operatsiyalarini aks ettiruvchi birlamchi hujjatlarni shakllantirish va ro'yxatdan o'tkazishni nazarda tutadi: kvitansiyalar, schyot-fakturalar, shartnomalar va boshqalar.

3. Iqtisodiy faoliyat faktlarini joriy guruhlash. Ushbu bosqichda barcha yaratilgan ma'lumotlar tegishli ma'lumotlar bazalari va kitoblarda aks yetadi. Buxgalteriya operatsiyalari buxgalteriya registrlariga tanlangan buxgalteriya shakli bo'yicha kiritilgan ikki tomonlama yozuv usuli yordamida amalga oshiriladi.

4. Iqtisodiy faoliyat faktlarining qisqacha mazmuni. Ushbu bosqichdagi joriy buxgalteriya ma'lumotlari asosida iqtisodiy faoliyat faktlarining yakuniy xulosasi amalga oshiriladi, moliyaviy hisobotlar shakllantiriladi, bu korxonaning ma'lum vaqt oralig'idagi faoliyatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi: bir yil, yarim yil, chorak. Bunday hisobotlarga misollar bo'lishi mumkin: balans, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot va boshqalar.

5. Buxgalteriya hisobotlarini tahlil qilish. Ushbu bosqichda korxonaning iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish taqdim etilgan buxgalteriya hisobi va hisobot ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu yakuniy bosqich juda muhimdir, chunki aynan shu asosda kompaniya mumkin bo'lgan xavflarni aniqlay oladi, operatsiyalarning maqsadga muvofiqligini baholaydi, kelgusi davr uchun prognoz qiladi va hokazolarni amalga oshiradi.

Yuqoridagi barcha bosqichlar buxgalteriya hisobi siklini tashkil qiladi va ularning muvofiqligi kompaniya faoliyatini tashkil qilish uchun juda muhimdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning turli shakllariga ega korxonalarni tashkil etish jarayonida ularning boshqaruvi, faoliyatini nazorat qilish va tahlil qilish; asosan buxgalteriya hisobi ma'muriyat tomonidan tezkor qarorlar qabul qilish uchun asos bo'ladigan zarur ma'lumotlarni taqdim etadi. Shu bilan birga, boshqa mamlakatlarga iqtisodiyot tarmoqlarida buxgalteriya hisobining ilg'or usullarini joriy etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi.

Iqtisodiyotda insoniyati rivojlanishining barcha bosqichlarida turli xil hisob-kitoblarga talab mavjud edi. Chunki iqtisodiyotni hisobga olish insoniyat uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish, iste'mol tovarlari, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqalarni taqsimlashni anglatadi. Har bir jamiyatning asosiy maqsadi, shuningdek, zarur narsalarni ishlab chiqarish, almashish va tarqatishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun odamlarning ijtimoiy hayotida sodir bo'layotgan voqealarni kuzatish, mehnat obyektlari, mehnat qurollari, shuningdek jamiyatda mavjud bo'lgan mehnat jarayonlarini hisobga olish kerak bo'ladi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tashkilotning iqtisodiy faoliyatining yakuniy bosqichi bo'lib, har qanday tashkilotning rivojlanishi va faoliyatining hozirgi holati va keyingi istiqbollarini baholashga imkon beradigan ma'lumot manbai hisoblanadi. Su sababli moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

moliyaviy hisobotlar buxgalteriya registrlaridagi ma'lumotlar, shuningdek qonun va sanoat standartlari bilan belgilangan ma'lumotlar asosida tuzilishi kerak;

moliyaviy hisobotlar tashkilotning hisobot sanasidagi moliyaviy holatini, uning faoliyatining moliyaviy natijalarini va hisobot davridagi pul oqimlarini ishonchli aks ettirishi kerak;

moliyaviy hisobot hisob-kitob asosida tuziladi;

moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda tashkilot undagi ma'lumotlarning betarafligini ta'minlashi kerak, ya'ni buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilarning ayrim guruhlarining boshqalarga nisbatan manfaatlarini bir tomonlama qondirish istisno qilinadi;

moliyaviy hisobotlarning mazmuni va shakllari bir hisobot davridan boshqasiga izchil qo'llanilishi kerak;

moliyaviy hisobot tashkilotning barcha bo'linmalari, shu jumladan uning filiallari va vakolatxonalarining joylashgan joyidan qat'i nazar, ishlash ko'rsatkichlarini o'z ichiga olishi kerak;

moliyaviy hisobot aktivlar va passivlar, foya va zararlar moddalari o'rtaida hisob-kitob qilishga yo'l qo'ymaydi, bunday hisob-kitoblar normativ hujjatlarda belgilangan qoidalarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

moliyaviy hisobot tashkilot rahbari tomonidan uning nusxasi qog'ozga imzolangandan keyin tuzilgan hisoblanadi;

moliyaviy hisobotlarga nisbatan tijorat siri rejimi o'rnatilishi mumkin emas.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 13.04.2016 yildagi O'RQ-404-soni.
2. Buxgalteriya hisobi nazariyasi [Matn]: darslik. T.Toshmamatov. — Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2019. — 376 bet.
3. D.Q.Usmanova Buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. – Samarqand, SamDU, 2020. -388 bet.
4. Abduvaxidov F.T., Qo'ziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik. — T.: TDIU, 2019. — 403 b.
5. Kudbiev, D., Qudbiyev, N. T., & Imomova, Z. T. Q. (2022). Moliyaviy Hisobotlardan Moliyaviy Menejmentda Foydalanish Masallalari. Scientific progress, 3(4), 1030-1037.
6. Кудбиев, Н. Т. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ВЗАЙМООТНОШЕНИЙ ПРЕДПРИЯТИИ С КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 3(10), 87-93.
7. Nabievich, I. I., & Jaloliddinovich, M. E. (2022). Accounting of fixed assets according to ifrs-tasks and solutions for the organization of accounting by component parts. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(8), 53-60.
8. Kurbonalievna, I. G. (2021). The ways to improve the internal corporate governance mechanisms in joint-stock companies. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 255-259.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 6 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулияти чекланган жамият**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).